



_____ hokimligi
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ maktabgacha va
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
3-“___” sinf rahbari

_____ning
2023-2024-o'quv yili uchun

**SINF SOATLAR
ISH REJASI VA
DARS ISHLANMALARI**

Tushuntirish xati

Bolalarimizni birovlarining qoʻliga berib qoʻymasdan, ularni oʻzimiz tarbiyalashimiz lozim.

Shavkat Mirziyoyev

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq taʼlimi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” 2018-yil 5-sentyabrdagi PQ-3931-son qarori hamda Vazirlar Mahkamasining “Umumiy oʻrta taʼlim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” 2020-yil 6-iyuldagi 422-son qarorida belgilandi. 2023-2024-oʻquv yilidan boshlab 1-11-sinflarda haftaning juma kunidagi birinchi darsni sinf rahbarlari va tegishli mutahasisslar tomonidan “Sinf soati” sifatida oʻtilishi yoʻlga qoʻyildi. **Maʼlumki, sinf rahbari oʻz sinfidagi oʻquvchilarning bevosita taʼlim-tarbiya jarayoni, yaʼni darslar davomida hamda darsdan keyingi faoliyatini nazorat qilishga masʼul shaxs hisoblanadi.**

Umumiy oʻrta taʼlim muassasalarida sinf rahbari faoliyati Oʻzbekiston Respublikasining “Taʼlim toʻgʻrisida”gi Qonuni, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taʼlim sohasidagi qarorlari, Xalq taʼlimi vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan tegishli meʼyoriy hujjatlar va Xalq taʼlimi vazirligining 2020-yil 30-iyuldagi 180-sonli buyrugʻi 2-ilovasi bilan tasdiqlangan **“Taʼlim muassasalari sinf rahbari toʻgʻrisida Nizom”** asosida tashkil etildi.

Mazkur dastur va metodik qoʻllanmayuqorida nomlari keltirilgan taʼlimga oid huquqiy va meʼyoriy hujjatlarga, shuningdek, umumiy oʻrta taʼlimning uzluksizligi va izchilligiga, zamonaviy metodologiyalarga asoslangan.

Dasturning maqsadi — Sinf soatlarni mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilgʻor tajribalari hamda ilm-fan va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda tashkil etish, zamon talablariga javob beruvchi, maʼnaviy barkamol, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega shaxslarni tarbiyalashdan iborat.

Sinf soat dasturining vazifalari:

milliy, umuminsoniy va maʼnaviy qadriyatlar asosida oʻquvchilarni tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish;

tarbiya jarayoniga pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

oʻquvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlashda taʼlim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini taʼminlashdan iborat.

Bugungi kunda axborot oqimining tezligi natijasida hayotimizga ommaviy madaniyatni salbiy taʼsirlari ham sezilmoqda. Bu masalani oʻquvchilarning ijtimoiy hayotlari misolida koʻrishimiz mumkin. Baʼzida ota-onalar tomonidan bolalarning beodoblighi, oʻz fikrini ogʻzaki yoki yozma tarzda aniq ifodalay olmasligi, masʼuliyatning yetishmasligi, atrofidaqilar bilan kelisha olmasligi, oʻziga tegishli boʻlgan mablagʻlarni toʻgʻri taqsimlay olmasligi haqidagi fikrlarni eshitib qolamiz. SHuning uchun ham dasturni ishlab chiqishda xaqlaro va milliy tajribaga asoslanilganligini alohida taʼkidlab oʻtish joizdir.

“Taʼlim muassasalari sinf rahbari toʻgʻrisida Nizom”ga asosan “Sinf rahbari - Taʼlim muassasasining tarbiyaviy tizimidagi tayanch pedagoglardan biri boʻlib, oʻziga birlashtirilgan sinf oʻquvchilarining amalda belgilangan taʼlim va tarbiya olishlarini tashkil etadi.” SHu nuqtai nazardan olib qaraganda bugungi kunda taʼlim muassasalari **sinf rahbarlari faoliyatida quyidagilarga oʻxshash muammolar koʻzga tashlanmoqda:**

- Ayrim sinf rahbarlari tomonidan oʻquvchilarni tarbiyalash jarayonida oʻz oldilariga qoʻygan maqsad va vazifalarining toʻgʻri tashkil etilmaganligi;
- Sinf soatlarning aniq oʻquv-mavzu reja asosida tashkil etilmayotganligi;
- Taʼlim-tarbiya va maʼnaviy-maʼrifiy sohaga oid qonunlar va qonunosti hujjatlarning koʻpchiligidan oʻqituvchi va sinf rahbarlarining yetarli darajada xabardor emasligi;
- Baʼzi sinflardagi muhitning qoniqarli emasligi, ahil va mustahkam jamoaning shakllanmaganligi;
- Ayrim taʼlim muassasalarida davomatning pastligi, muntazam dars qoldiruvchi oʻquvchilar mavjudligi;
- Baʼzi sinflardagi oʻquvchilarda kundalik daftarlarining mavjud emasligi, borlarining ham sinf rahbari tomonidan nazorat qilinmaganligi;
- Ayrim oʻquvchilarning darslarga tayyorgarliksiz, hatto darsliklarsiz ishtirok etishlari;
- Oʻquvchilar internet va mobil telefon qaramligining jismoniy va ruhiy xatarlari haqida yetarli tushunchalarga ega emasliklari;
- Voyaga yetmaganlar oʻrtasida turli zararli oqimlar taʼsiriga tushib qolish, jinoyatchilik va huquqbuzarlik holatlarining uchrayotganligi;
- Oʻquvchi tarbiyasida muhim oʻrin tutadigan kompetensiyalarga erishilmaganligi;

- Baʼzi oʻqituvchi va tarbiyachilarimizda kasbiy kompetensiyalar yetishmasligi;
- Tarbiyaviy ishlar taʼsirchanligining pastligi;
- Ota-onalar bilan samarali muloqotning yoʻlga qoʻyilmaganligi;
- Huquqbuzarlik, mobil telefon va internet qaramligi, narkomaniya, tamaki va alkogol mahsulotlarini isteʼmol qilishga qarshi kurash hamda oldini olish boʻyicha samarali chora-tadbirlar tizimi ishlab chiqilmaganligi.

Shu oʻrinda masalaning muhim bir jihatiga eʼtiboringizni qaratmoqchimiz. **Bugungi kunda umumtaʼlim maktablarida Sinf soatlar amalda qanday tashkil qilinmoqda?**

- Bugungi kundagi aksariyat hollarda Sinf soatlar quruq gaplardan iborat boʻlib, Sinf soat mavzularidan chetga chiqib ketiladi;
- Qaysidir oʻquvchining xulqi muhokamaga qoʻyiladi;
- Oʻquvchilarning fanlarni oʻzlashtirishlari va davomatlari muhokama qilinadi;
- Qandaydir tadbirlarga tayyorgarlik va sinf muammolarini hal etish kabi masalalar xususida soʻz boradi.

Sinf soatlar qanday boʻlishi kerak?

- Taʼlim jarayoni alohida, mustaqil darslardan tashkil topgani kabi Sinf soatlar ham yaxlit tarbiyaviy usullar, taʼsirchan vositalar yordamida amalga oshiriladi.
- Sinf rahbari ushbu tadbirlarni oʻtkazishga doir aniq ish rejasiga ega boʻlishlari lozim.

Bugungi shiddatli davr barchamizdan axloqiy va maʼnaviy jihatdan tarbiyaviy ishlarni yanada kuchaytirish lozimligini talab etmoqda. Maʼnaviyat yoʻq ekan, inson ongli ijtimoiy shaxs boʻla olmaydi. SHuning uchun ham sinf rahbarlari va butun oʻqituvchilar jamoasi oldida oʻquvchilarga milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida hayot kechirishni oʻrgatishdek muhim vazifa turadi. Hozirgi globallashuv jarayonlari kuchaygan, turli gʻoyalar oʻrtasidagi kurash keskinlashgan, “ommaviy madaniyat” xurujlari butun dunyoga tarqalib borayotgan, internet tarmogʻi orqali uzatilayotgan buzgʻunchi axborotlar inson qalbi va ongini oʻziga qaram qilishga urinayotgan tahlikali zamonda kelajagimiz boʻlgan yosh avlodni hayotga tayyorlashning samarali shakl va uslublarini izlash davlat siyosati darajasidagi masalaga aylangan.

Tarbiyaviy ishlarni davr talabiga javob beradigan holga keltirish uchun tarbiyaning asosi boʻlgan barcha gʻoyalar qaytadan koʻrib chiqilishi, asosiy eʼtibor bola shaxsiga qaratilishi, yillar davomida toʻplangan ijobiy tajribadan unumli foydalanish zarurligini taqozo etadi. Inson shaxsining kamol topishi esa juda murakkab va uzluksiz jarayon davomida shakllanadi. Uning tarbiyasiga ota-onasi, maktab, mahalla, doʻstlari, jamoat tashkilotlari, atrof-muhit, internet, ommaviy axborot vositalari, sanʼat, adabiyot, tabiat va hokazolar bevosita taʼsir koʻrsatadi. SHuning uchun ham barcha sinf rahbarlari oʻz tarbiyaviy faoliyatlarida ana shu mezonlarni hisobga olishlari shart.

Sinf soatlar oʻquvchilarda shakllangan tayanch kompetensiyalarni amaliyotga tadbiiq etish maydoni hisoblanadi. Toʻgʻri tashkil etilgan Sinf soatlar oʻquvchilarda fanlar orqali shakllangan tayanch kompetensiyalarni ijtimoiy hayotda tadbiiq eta olishlari uchun imkoniyat yaratib beradi.

Oʻquvchilarda hulq-odob madaniyatiga rioya qilish, fikrini erkin ifodalash, notiqlik qobiliyatini yuksaltirish, axborotlardan toʻgʻri va samarali foydalanish, shu bilan birga bu boradagi xalqaro hamda milliy qonunchilik qoidalariga rioya qilishni tarbiyalash Sinf soatlarning asosiy maqsadlaridan birdir. SHuningdek, Sinf soatlar orqali oʻquvchilarda toʻgʻri kasb tanlash, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, boʻsh vaqtini toʻgʻri taqsimlash, oʻz iqtidorini rivojlantirish uchun turli toʻgaraklarni toʻgʻri tanlash, tayyor ish joylarida ishlash emas, balki oʻzi ish joylarni yaratishi kabi qobiliyatlar shakllantiriladi.

Sinf soat dasturlari oddiydan murakkablikka tamoyili asosida shakllantirilgan boʻlib, quyidagi yoʻnalishlarni oʻz ichiga oladi. Vatanparvarlik; axloqiy, huquqiy, jismoniy, gigienik, ekologik hamda estetik tarbiya shuningdek, oʻquvchilarni toʻgʻri kasb tanlashga yoʻnaltiradi. Sinf soatlarning mazkur yoʻnalishlari Oʻzbekiston Respublikasida taʼlimning uzluksizligi, uzviyligi, oʻquvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularda yosh xususiyatlariga mos ravishda quyidagi tayanch kompetensiyalar shakllantiriladi.

SHuningdek, mazkur kompetensiyalar har bir Sinf soatning mazmunidan kelib chiqqan holda shakllantiriladi.

Umumtaʼlim maktablarining 1-11-sinf oʻquvchilari uchun tuzilgan “Sinf soatlar uchun namunaviy mavzular rejasii” mazmunan tarbiyaviy-axloqiy hislatlarni shakllantirish bilan bir qatorda yurtimizda nishonlanadigan umumxalq bayramlari va muhim tarixiy sanalar asosida tuzildi. Bundan tashqari mazkur rejada fan oyliklari davomida oʻquvchilar uchun tarbiyaviy dars soatlarini oʻtishda nimalarga eʼtibor berish kerakligi eʼtiborga olingan.

Mazkur dastur va qoʻllanmada bugungi kunda sinf rahbarlari uchun amaliy va uslubiy yordam sifatida Respublika Taʼlim markazi mutaxassislari va amaliyotchilar hamkorligida “Sinf soat”larning mashgʻulot ishlanmalari tavsiiya etiladi.

“Sinf soat”lar rejasidagi 8 soatlik “Yo‘l harakati qoidalariga”ga doir mavzular dasturi va dars ishlanmalari mazkur qo‘llanmada aks ettirilmagan.

Umumta'lim maktablarining o'quvchilari uchun ishlab chiqilgan “Sinf soat” mashg'ulot ishlanmalarida mazmunan o'quvchilarda tarbiyaviy-axloqiy xislatlarni shakllantirish va mustahkamlash maqsadida donolar hikmatlariga va milliy qadriyatlarimizga hurmat, vatanparvarlik, insonparvarlik, jismoniy tarbiya, shaxsiy gigiyena, ozodalik, kiyinish odobi, bola huquqlari, tabiatni asrash, iqtisodiy tarbiya, salomlashish va muomala odobi, kitobni sevish kabilar bilan bir qatorda yurtimizda o'tkaziladigan umumxalq bayramlari va muhim sanalarni nishonlashda nimalarga e'tibor berish lozimligi to'g'risida tavsiyalar berilgan.

Sinf soatlarni quyidagi tartibda tashkil qilish mumkin:

Kun shiori:

I. Kirish;

II. Asosiy qism: hikoya, suhbat, ma'ruza, guruhlarda ishlash;

III. Yakuniy qism.

Sinf soatlarda foydalanish uchun mavzuga doir adabiyotlar ko'rgazmasi tashkil etiladi. Jarayonni ochiq muloqot, davra suhbat, bahs-munozara, treninglar va boshqa har xil noan'anaviy tarzda tashkil etish mumkin.

(Izoh: Taqdim etilayotgan Sinf soatlar dasturiga Umumta'lim maktablarining sinf rahbarlari metod kengashi qaroriga ko'ra 15 % gacha o'zgartirish kiritilishi mumkin.)

“Tasdiqlayman”:

Maktab MMIBDO‘:

“Sinf soati” mashg‘ulotlarining 2023-2024-o‘quv yili uchun o‘quv-mavzu rejasi
3-SINF

| № | O‘tiladigan mavzular | Soat | Rejada | Amalda |
|-----|--|------|--------|--------|
| 1. | Serquyosh O‘zbekiston! | 1 | | |
| 2. | Transport vositalariga chiqish va tushish qoidalari. (Yo‘l harakati qoidalari) | 1 | | |
| 3. | Birinchi tibbiy yordam qanday ko‘rsatiladi? | 1 | | |
| 4. | Ustoz mehri (1 oktyabr – O‘qituvchilar va murabbiylar kuni munosabati bilan). | 1 | | |
| 5. | Harakat xavfsizligini tashkil etishda yo‘l belgi va chiziqlarining o‘rni (Yo‘l harakati qoidalari) | 1 | | |
| 6. | Bo‘lay desang baquvvat, bardam, sport bilan shug‘ullan hardam. | 1 | | |
| 7. | Piyoda va uning do‘stlari. (Yo‘l harakati qoidalari). | 1 | | |
| 8. | Ona tiliga ehtirom (“Davlat tili haqida”gi Qonun qabul qilingan kun | 1 | | |
| 9. | Oilada tejamkorlik. | 1 | | |
| 10. | Shahar tashqarisida xavfsizlik qoidalari (Yo‘l harakati qoidalari). | 1 | | |
| 11. | Bayrog‘imiz – faxrimiz (18-noyabr - Davlat bayrog‘i qabul qilingan kun munosabati bilan). | 1 | | |
| 12. | Yo‘llardan o‘tish qoidalari (Yo‘l harakati qoidalari). | 1 | | |
| 13. | Bizning huquqlarimiz (8-dekabr – Konstitutsiya kuni munosabati bilan). | 1 | | |
| 14. | Davlatimiz madhiyasi (10-dekabr - Davlat madhiyasi qabul qilingan kun munosabati bilan). | 1 | | |
| 15. | Ratsional ovqatlanish va uning salomatligimiz uchun ahamiyati | 1 | | |
| 16. | Yangi yil archasi (Yangi yil bayrami yaqinlashishi munosabati bilan). | 1 | | |
| 17. | Vatanimiz himoyachilari (14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan). | 1 | | |
| 18. | Transportdan tushgan yo‘lovchilarning yo‘ldan o‘tish qoidalari (yo‘l harakati qoidalari) | 1 | | |
| 19. | Ko‘hna obidalar-tarix guvohi. | 1 | | |
| 20. | Buyuk ajdodimiz (A.Navoiy va Z.M. Bobur tavallud kunlari oldidan). | 1 | | |
| 21. | Jamoat joylarida o‘zini tuta bilish. Did bilan kiyinish odobi. | 1 | | |
| 22. | Did bilan kiyinish odobi | 1 | | |
| 23. | Qush uyasida ko‘rganini qiladi. | 1 | | |
| 24. | Onajonlar, sizga ta‘zim! (8 mart – Xotin-qizlar kuni munosabati bilan). | 1 | | |
| 25. | Kim bo‘lsam ekan? | 1 | | |
| 26. | O‘zbek milliy o‘yinlari (21 mart – Navro‘z bayrami munosabati bilan). | 1 | | |
| 27. | Amir Temur avlodlarimiz. | 1 | | |
| 28. | Imtiyozli belgilar (Yo‘l harakati qoidalari) | 1 | | |
| 29. | Ilm – baxt kaliti. | 1 | | |
| 30. | Vatan – muqaddas (9 may – Xotira va qadrlash kuni oldidan). | 1 | | |
| 31. | Axborot-ishora belgilari (Yo‘l harakati qoidalari) | 1 | | |
| 32. | Kitobim –oftobim. | 1 | | |
| 33. | Yaxshi dam – o‘qishga hamdam. | 1 | | |
| 34. | Yozgi rejalar | 1 | | |

Sana: “ ” _____ 20__-yil. Sinfi: _____ Sinf rahbari: _____

1-Mavzu: Serquyosh O‘zbekiston!

I.Kirish:

Sinf soati mashg‘ulotning maqsadi: O‘quvchilarga Vatan – insonning kindik qoni to‘kilgan tuproqligini, insonni kamol toptiradigan, hayotiga ma‘no ,mazmun baxsh etadigan tabarruk maskanligini anglatish.O‘quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizga bo‘lgan hurmatlarini oshirish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi — jamiyatda bo‘layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish, o‘zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish, unga rioya qilish, mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala va huquqiy madaniyatga ega bo‘lish layoqatlarini shakllantirish.

Milliy va umummadaniy kompetensiya — vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e‘tiqodli bo‘lish, badiiy va san‘at asarlarini tushunish, orasta kiyinish, madaniy qoidalarga va sog‘lom turmush tarziga amal qilish layoqatlarini shakllantirish.

Mashg‘ulot turi: yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi, amaliy, nazariy, aralash, noan‘aviy, ananaviy.

Mashg‘ulot uslubi: tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, ko‘rgazmali va boshqalar.

Mashg‘ulot metodi: guruhlarda ishlash, “kim epchil-u, kim chaqqon”, “ko‘rsam tezroq o‘rganaman”, “muammo va yechim” shu kabi metodlar.

Mashg‘ulot jihozi: mavzuga oid rasm, ko‘rgazmalar va tarqatma materiallar, o‘quv qurollari, elektron materiallar.

Mashg‘ulotning borishi:

Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

Uyga vazifani so‘rash: a) Savol – javob o‘tkazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

II. Asosiy qism:

(Vatan haqida qo‘shiq eshittirish)Musiqa eshittirish orqali esa bolalarda qo‘shiqqa, musiqaga qiziqish uyg‘otish. Bolajonlar eshitgan qo‘shig‘ingiz nima haqida ekan?

Bu qo‘shiqda go‘zal O‘zbekistonimiz va uning jannatnagonligi tarannum etilgan.

Demak, bugungi mavzumiz “Serquyosh O‘zbekiston!” -deb nomlanadi.Slaydlar yoki rasmlı plakatlar yordamida mazmunini so‘zlash va asoslash.

Bugun Davlatimiz, Yurtboshimizning siz – yoshlarga bo‘lgan g‘amxo‘rligi va e‘tibori kun sayin oshmoqda. uverenitet –bu davlatning ichki,tashqi siyosatda mustaqilligi

Mustaqillik – birovga qaram bo‘lmagan,o‘z ixtiyori bilan harakat qilishga qobil,ozod va erkin inson,xalq,davlat faoliyatining mohiyatini ifoda etuvchi tushunchadir.

Prezidentimiz **Shavkat Mirziyoyev** bejizga “Bolalarimizni birovlarining qo‘liga berib qo‘ymasdan, ularni o‘zimiz tarbiyalashimiz lozim” deb aytmaganlar. Shu sababli ta‘limni O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustuvor yo‘nalish, deb e‘lon qilingan.



2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish, erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, tub islohot jarayonlarini yangi bosqichga ko‘tarish, inson huquq va manfaatları, uning qadri, sha‘ni va g‘ururini yetakchi o‘ringa olib chiqish ustuvor vazifamizga aylangan hozirgi vaqtda yurtimizda tinchlik va barqarorlikni saqlash, davlatimizning hududiy yaxlitligi va bo‘linmasligi, sarhadlarimiz daxlsizligini ta‘minlash, millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik va hamjihatlikni mustahkamlashga intilish ko‘p millatli xalqimizni yanada birlashtiradigan, yuksak marralarga safarbar etadigan beqiyos kuchga aylanib bormoqda.

III. Yakuniy qism:

Dars yakunida o‘quvchilar bilan birgalikda olgan bilimlarni umumlashtirilib, savollar bilan mustahkamlanadi. O‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

Maktab MMIBDO‘ _____ sana _____ 20__yil

Sana: “ ” _____ 20__-yil. Sinf: _____ Sinf rahbari: _____

2-mavzu: Transport vositalariga chiqish va tushish qoidalari. (Yo‘l harakati qoidalari)

I. Kirish:

Sinf soati mashg‘ulotning maqsadi: o‘quvchularga Transport vositalariga chiqish va tushish qoidalari haqida tushuncha berish.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi — media manbalardan zarur ma‘lumotlarni izlab topa olishni, saralashni, qayta ishlashni, saqlashni, ulardan samarali foydalana olishni, ularning xavfsizligini ta‘minlashni, media madaniyatga ega bo‘lish layoqatlarini shakllantirish.

O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi — doimiy ravishda o‘z-o‘zini jismoniy, ma‘naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish, hayoti davomida mustaqil o‘qib-o‘rganish, kognitivlik ko‘nikmalarini va hayotiy tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish, o‘z xatti-harakatini muqobil baholash va mustaqil qaror qabul qila olish ko‘nikmalarini egallash.

Mashg‘ulot turi: yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi, amaliy, nazariy, aralash, noan‘aviy, ananaviy.

Mashg‘ulot uslubi: tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, ko‘rgazmali va boshqalar.

Mashg‘ulot metodi: guruhlarda ishlash, “kim epchil-u, kim chaqqon”, “ko‘rsam tezroq o‘rganaman”, “muammo va yechim” shu kabi metodlar.

Mashg‘ulot jihozi: mavzuga oid rasm, ko‘rgazmalar va tarqatma materiallar, o‘quv qurollari, elektron materiallar.

Mashg‘ulotning borishi:

Tashkiliy qism: a) Salomlashish.



b) Davomatni aniqlash.

Uyga vazifani so‘rash: a) Savol – javob o‘tkazish.

b) Topshiriqlarni tekshirish.

II. Asosiy qism:

«Piyoda – umring bo‘lsin ziyoda!» Bunday so‘zlar bitilgan shiorlarni siz YPX maskanlarida, shahrimiz ko‘chalarida ko‘p ko‘rgansiz, chunki piyoda ham yo‘l harakati ishtirokchilaridan biri bo‘lib, unga ham boshqa yo‘l harakati ishtirokchilari, transport vositasi haydovchisi, yo‘lovchi kabi intizom va ulkan mas‘uliyat yuklangan. Haydovchi boshqarayotgan transport vositasining yuqori darajali xavf-hatar manbai ekanligini piyodalar yaxshi anglaydilar. Ko‘pchilik piyodalar yo‘lning qatnov qismidan o‘tishda ehtiyotsizlik yoki sabrsizliklari oqibatida o‘z xatti-harakatlarini chuqur o‘ylamasdan amalga oshiradilar.



Agar trotuar piyodalar yo‘lkasi yoki yo‘l yoqasi bo‘lmasa yoxud ulardan yurishning imkoni bo‘lmasa, piyodalar velosiped yo‘lkasidan yoki qatnov qismining chetidan, ajratuvchi bo‘lagi bor yo‘llarda qatnov qismining o‘ng chetidan bir qator bo‘lib yurishlari mumkin.

Aholi yashaydigan joylardan tashqaridagi yo‘lning qatnov qismida harakatlanayotgan piyodalar transport vositalarining harakatiga qarshi yo‘nalishda yurishlari kerak. Piyodalar yo‘lning qatnov qismini piyodalar o‘tish joylaridan shuningdek, yer osti va yer usti o‘tish joylaridan, ular bo‘lmaganda esa chorrahalarda trotuar chiziqlari yoki yo‘l yoqasi bo‘ylab kesib o‘tishlari kerak.

III. Yakuniy qism:

Dars yakunida o‘quvchilar bilan birgalikda olgan bilimlarni umumlashtirilib, savollar bilan mustahkamlanadi. O‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

Maktab MMIBDO‘ _____ sana _____ 20__yil

Sana: “ ” _____ 20__-yil. Sinf: _____ Sinf rahbari: _____

3-mavzu: Birinchi tibbiy yordam qanday ko‘rsatiladi?

I. Kirish:

Sinf soati mashg‘ulotning maqsadi:

O‘quvchilarga birinchi tibbiy yordam haqida tushuncha, tibbiy yordamga muhtoj kishilarga duch kelganda qanday harakat qilish lozimligi tug‘risida tushuncha berish

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi — media manbalardan zarur ma’lumotlarni izlab topa olishni, saralashni, qayta ishlashni, saqlashni, ulardan samarali foydalana olishni, ularning xavfsizligini ta’minlashni, media madaniyatga ega bo‘lish layoqatlarini shakllantirish.

O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi — doimiy ravishda o‘z-o‘zini jismoniy, ma’naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish, hayoti davomida mustaqil o‘qib-o‘rganish, kognitivlik ko‘nikmalarini va hayotiy tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish, o‘z xatti-harakatini muqobil baholash va mustaqil qaror qabul qila olish ko‘nikmalarini egallash.

Mashg‘ulot turi: yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi, amaliy, nazariy, aralash, noan’aviy, ananaviy.

Mashg‘ulot uslubi: tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, ko‘rgazmali va boshqalar.

Mashg‘ulot metodi: guruhlarda ishlash, “kim epchil-u, kim chaqqon”, “ko‘rsam tezroq o‘rganaman”, “muammo va yechim” shu kabi metodlar.

Mashg‘ulot jihozi: mavzuga oid rasm, ko‘rgazmalar va tarqatma materiallar, o‘quv qurollari, elektron materiallar.

Mashg‘ulotning borishi:

Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

Uyga vazifani so‘rash: a) Savol – javob o‘tkazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

II. Asosiy qism:

O‘qituvchi o‘quvchilarga birinchi tibbiy yordam haqida ma’lumot beradi.

Ma’lumki, baxtsiz hodisalar, falokat, tabiiy ofat va boshqalar vaqtida voqea sodir bo‘lgan joyda ko‘p sonli jarohatlanganlar bo‘ladi. Bunday holatlarda tez yordam qanday tashkil qilinadi? Qanday yordam va u qanday ketma-ketlikda ko‘rsatiladi? Bunday hollarda voqea sodir bo‘lgan joyda tibbiyot xodimi yoki birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish ko‘nikmalariga ega bo‘lgan shaxs voqea oqibatlarini bartaraf qilish uchun qo‘llaniladigan chora-tadbirlarni o‘tkazish bo‘yicha javobgar bo‘ladi. U hamma jarohatlanganlarga yordam berilmaguncha yoki tez yordam brigadasi yetib kelmaguncha o‘sha joyda qolishi kerak. Bu holatda hal qilinishi lozim bo‘lgan asosiy masalalar quyi-dagilardan iborat: shikastlanish turi bo‘yicha jarohatlanganlar guruhlarini tashkil qilish, hayotiy ko‘rsatmalar bo‘yicha tez tibbiy yordam ko‘rsatish, jarohatlanganlarni tezkorlik bilan, ularning holati va jarohati darajasiga qarab, navbat bilan davolash muassasasiga evakuatsiya qilish.

Jarohatlanganlarga yordam ko‘rsatishni tashkil qilish bo‘yicha umumiy boshqaruv mahalliy sog‘liqni saqlash organlariga yuklatiladi. Qo‘l yoki oyoq qattiq jarohat tufayli uning sinish extimoli mavjud. Quydagi holatda vrach kelgunicha birinchi tibbiy tez yordam quyidagicha Qo‘l yoki oyoq singan bo‘lsa darhol singan joyiga shina (qattiq, tekkis bo‘lgan jism) qo‘yiladi va ustidan toza bint yoki mato bilan o‘rab bog‘lab qo‘yiladi. Singan joyidan katta jarohat bo‘lib to‘xtovsiz qon kelayotgan bo‘lsa shu jarohat tepasidan tahminan bir qarich tepasidan qo‘lni yoki oyoqni mato bilan qattiq bog‘lab qo‘yiladi, bog‘lab qo‘yish natijasida qo‘lga yoki oyoqqa qon borishini to‘xtatib turamiz, faqat bog‘lab qo‘ygan joyizga qachon bog‘lab qo‘yilgan vaqtingizni yozishni unutmang.



III. Yakuniy qism:

Dars yakunida o‘quvchilar bilan birgalikda olgan bilimlarni umumlashtirilib, savollar bilan mustahkamlanadi.

O‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

Maktab MMIBDO‘ _____ sana _____ 20__yil

vab-saytimiz: Zokirjon.com
Hujjat Word variantda beriladi.

Zokirjon Admin bilan

90-530-00-68 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog'lanishingiz yoki nza4567 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi. Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi

39 listdan iborat 3-sinf o'quvchilarga Sinf soatini to'liq holda olish uchun telegramdan yozing.




Narxi: 20 ming so'm

Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To'lov uchun: UZCARD *880*9860230104973329*summa#

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.

To'liq holda olganingizdan so'ng:

Faqat o'zingiz uchun foydalaning.

Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.

Internet orqali vab-saytlarga joylamang.

Kanal va gruppalariga tarqatmang.

OMONATGA

HIYONAT QILMANG.